



ALISHER NAVOIY RUBOIYLARI VA SO'Z MAQOMLARI

Ataniyazova Mubarak

f.f.f.d., dotsent

Qoraqalpoq davlat universiteti

ataniyazova@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20696199>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-iyun 2026 yil

Ma'qullandi: 13-iyun 2026 yil

Nashr qilindi: 15-iyun 2026 yil

KEY WORDS

Alisher Navoiy, mumtoz poetika, surat va ma'ni, so'z maqomlari, ruboiy, qofiya, radif, alliteratsiya, assonans, majoz.

ABSTRACT

Ushbu maqolada mumtoz poetikaning fundamental asoslaridan biri bo'lgan surat va ma'ni birligi masalasi Alisher Navoiy ijodi misolida tahlil qilingan. Mumtoz adabiyotshunoslikdagi so'zning uch maqomi – e'joz (qisqalik), musovot (tenglik) hamda itnob (batafsillik) tushunchalarining mohiyati ochib berilgan. Alisher Navoiyning so'z ta'rifiga oid qarashlari hamda shoir ruboiylarining badiiy-strukturaviy tuzilishi tadqiq etilgan. Ruboiylarda musiqiylikni ta'minlovchi alliteratsiya, assonans kabi akustik vositalar hamda zulf, ko'z, qosh kabi an'anaviy timsollarning tasavvufiy-majoziy ma'nolari tahlilga tortilgan.

Mumtoz adabiyotda surat va ma'ni birligi mumtoz poetikaning asoslaridan biri hioblanadi. Mumtoz adabiyotshunoslikda ilmi adab o'z ichiga 12 ta ilmni qamrab oluvchi nazariy va amaliy ilmlar jamlanmasibo'lib, ana shu ilmlardan biri ilmi maoniydir. Navoiyning so'z va so'z maqomlari haqidagi qarashlari, tamoyillari ana shu ilm asosida shakllangan. Ushbu maqolada Navoiy lirikasida, xususan, ruboiylarida so'z maqomlarining namoyon bo'lihi va ularning shakl-mazmunda ifodalanishi tahlil qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Alisher Navoiy ruboiylarida surat va ma'ni yaxlitligi hamda irfoniy konsepsiyalarning ifodalanish qonuniyatlari mumtoz adabiyotshunoslikning nazariy manbalari va izohli lug'atlari negizida kompleks tadqiq etildi [1-10]. A.Hojiahmedov va Yo.Is'hoqovning nazariy tadqiqotlari she'r vazni va poetikasini o'rganishga xizmat qilgan bo'lsa, A.Qayumovning ishlari takrorlarning estetik vazifasini yoritib beradi [2-7]. Ushbu manbalar Navoiy ruboiylarida «ilmi maoniy»ning akustik va tasavvufiy jihatlarini kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida adabiy-tanqidiy qiyosiy tahlil, tizimlilik, tarkibiy-funksional tahlil hamda matnning fonopoetik tahlili metodlaridan foydalanildi. Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostonidagi nazariy qarashlari asos qilib olingan holda, shoirning «Xazoyin ul-maoniy» kulliyotiga kirgan ruboiylari lirik tahlil metodlari yordamida o'rganildi. Ruboiylardagi ohangdorlikni aniqlash uchun matndagi unli (assonans) va undosh (alliteratsiya) tovushlarning statistik miqdori va ularning badiiy vazifasi hisoblab chiqildi.

Tadqiqot natijalari. Ma'nolar ilmiga ko'ra so'z 3 maqomdadir: E'joz, musovot, itnob.

Shoir dostonlarida soʻz taʼrifiga alohida boblar ajratgan. Soʻzning eʼjzligi, yaʼni kam soʻzda olamcha maʼnolarni bera olish sanʼatini muqaddas Qurʼoni karim – Allohning kalomi bilan bogʻlab talqin qilingan, bu tushuncha Qurʼonga nisbatan ham qoʻllaniladi. Bu haqida shoir “Hayrat ul-abror” dostonida muxtasar toʻxtalib oʻtadi. Alisher Navoiy bu soʻzni yuksak badiiy mahorat, sheʼriyat moʻjizasi kabi maʼnolarda ham qoʻllaydi.

Soʻzning ikkinchi maqomi musovotdir, bu soʻz tenglik, barobarlik kabi lugʻaviy maʼnolarni ifodalab, shakl va maʼnoda meʼyorni saqlash tushuniladi, bunda ham shoirdan yuksak bilim va salohiyat talab qilinadi. Shuningdek, Alisher Navoiy lirikasida obrazlar orqali ilgari surilgan oʻlim uchun shoh va gado barobar, faqrlik maqomida yoki ishq yoʻlida shoh va gado tengligida oʻz ifodasini topgan.

Soʻzning uchunchi maqomi Itnob, bunda fikrni dalillash, kengaytirish maqsad qilinadi. Bu holatni turli xil janrdagi asarlarida uchratish mumkin. Baytda fikr ilgari suriladi va turli xil misollar bilan dalillanadi, tashbihlar, tamsillar qilinadi.

Alisher Navoiy “Xamsa”ning birinchi dostoni “Hayrat ul-abror”da XIV bob soʻz tarifiga bagʻishlangan boʻlsa, XV bob soʻzdagi maʼni va soʻz qolibi – shakl mavzusidadir. Yuqorida qayd etilgan fikrlarga misollar keltiramiz:

Boʻlmasa eʼjz maqomida nazm,
Boʻlmas edi Tengri kalomida nazm.

Demak, shoir nazmni eʼjz maqomida ekanligini taʼkidlash bilan birga sabab sifatida Qurʼoni karimda Allohning soʻzi eʼjz maqomida ekanligi koʻrsatilyapti. Va bu soʻzning – nazmning oʻz tuzuklari mavjud, soʻz ham ibtido, ham intiho va shu ikki qutb orasidagi bir mavjudlikdir.

Nazmda ham asl anga maʼni durur,
Boʻlsun aning surati har ne durur.

Baytda shoir mumtoz poetikaning fundamental mezonlaridan biri boʻlgan maʼni va surat (shakl va mazmun) birligiga ishora qilmoqda. Nazmning asli uning maʼnisi, surat – janr, qofiya, vazn, obrazlar oʻzgarishi mumkin, lekin oʻsha shakl orqali beriladigan maʼnoga putur yetmasligi lozimligini taʼkidlagan, shoir hamisha taqlidchilik, shaklbozlikni tanqid ostiga olgan.

Demak, Eʼjz – qisqalik; Musovot – meyoriy tenglik; Itnob – batafsillik, deb qabul qilish mumkin.

Tahlil va natijalar. Alisher Navoiy nazm tuzuklariga ham, nasrning poetik qoidalariga ham xiyonat qilmay qalam tebratgan. Shoir ijodida ham bir janrning ham shakl, ham maʼni poetikasidagi anʼanaviylikni saqlagan holda yangilik yaratganligining guvohi boʻlamiz. Shoir ruboiylarini oʻqir ekanmiz, undagi chuqur falsafiy qarashlarning taʼlimiy xarakteri bilan birga vazn va qofiya sanʼati kabi unsurlarlarda mukammal badiiylikni kashf qilamiz. Quyida ayrim ruboiylarni koʻrib chiqamiz.

39.

Har lahza koʻngul gʻamingda mahzun boʻladur,
Mahzunlugʻi lahza-lahza afzun boʻladur,
Savdo anga yuz onchaki, Majnun boʻladur,

Yuz muncha desam ham ne ajab chun boʻladur. [1. 730-sahifa]

Radifning ishtirokiga koʻra muraddaf ruboiy hisoblanadi, demak mazkur ruboiyda boʻladur soʻzi misra oxirida takrorlanib radif vazifasini bajargan, mahzun, afzun, Majnun, chun soʻzlari qofiyani tashkil qilib, muqayyad, yaʼni oʻzak qofiyani tashkil qilgan, shuningdek

tovushlar ohangdoshligini – oxirgi undosh va unlilar hamohangligini hisobga olib to‘q qofiya deyish mumkin. Misralarda oshiq ahvoloti tadrijiy o‘tib borishi mubolag‘ali tasvir etilgan, talmih san‘atiga asoslanib o‘xshatish qilingan. Matndagi mahzun, lahza, yuz so‘zlari ruboiyning musiqiylikni, ta’sirchanligini yanada oshirgan. Musiqiylikni ta’minlovchi vositalardan vazn, qofiya san‘ati, radiflarni aytishimiz mumkin. Shuningdek, she’rda musiqiylikni ta’minlashga xizmat qiluvchi vositalardan yana biri mavjudki, ko‘p hollarda bu hol e’tiborsiz qolib ketadi, ya’ni matnda qo‘llanilgan tovushlarning takrorlanishi, ishlatilish o‘rinlari (assonans – unli tovushlarning qo‘llanilishi, alliteratsiya – undosh tovushlarning qo‘llanilish hodisasi). Mazkur ruboiyda 148 ta tovush ishlatilgan bo‘lib, 58 tasini unli tovushlar tashkil qilmoqda. “U” unlisining takrori she’rda mahzunlik ohangini ta’minlagan: mahzun, afzun, Majnun, bo‘ladur kabi. “A” yoki “O” unlilari ichki ritmning muvozanatini saqlagan va ohangni yanada oshirgan. Undosh tovushlar ham aynan musiqiylikni ta’minlashga xizmat qildirilgan, e’tibor berib qaraydigan bo‘lsak, sonor (l, m, n, r) tovushlarning ko‘proq ekanligini ko‘ramiz va bu ruboiyga alohida bir ohangdorlik bergan. Shoir qofiya tuzishda ham, radif va boshqa o‘rinlarda ham tovushlar kombinatsiyasiga e’tibor qaratganligining guvohi bo‘lamiz, bu bilan shoir lirik qahramonning ichki holatini ochib berish uchun faqat so‘z ma’nisi, surat unsurlaridangina emas, balki tovushlarning akustik tabiatidan ham to‘liq foydalangan, deb xulosa qilish mumkin. Bo‘ladur radifining vazifasi musiqiylik va ritmni yanada kuchaytirish bo‘lib, matndagi asosiy urg‘u ham aynan radifdagi so‘zning ma’nosi bilan bog‘langan, ya’ni qofiyalardagi ma’nolarga alohida ahamiyat berilgan.

121.

Har zulf xamig‘a qilma vobasta meni,
Har ko‘z havasidin etmagil xasta meni,
Har qosh tamaig‘a solma payvasta meni,
Yo Rab, barisidin ayla vorasta meni. [1. 744-sahifa]

Ushbu ruboiy shoirning munojot ruhida yozilgan tasavvufiy-falsafiy ruboiysi hisoblanadi. Meni so‘zi radif vazifasini bajargan, demak muraddaf ruboiy ekan, qofiya vazifasini vobasta, xasta, payvasta, vorasta so‘zlari bajarmoqda va qofiyalanishiga ko‘ra muqayyad qofiyadir. Dastlabki uchta misrada ham har so‘zining ot so‘z turkumlari bo‘lgan zulf, ko‘z, qosh so‘zlari oldidan takrorlanishi natijasida ta’kidlash, alohida ajratib ko‘rsatish orqali matndagi ohangdorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Shoir har bir so‘zni alohida mas’uliyat bilan ishlatgan. Zulf, ko‘z, qosh so‘zlari dunyoviy go‘zallik timsoli bo‘lib an’anaviy tadrijiylikka ega, tasavvufiy lirikada esa har birining alohida majoziy mazmuni mavjud. Tasavvufiy she’riyatda ma’shuqaning tashqi qiyofasi bilan bog‘liq bir qancha timsoliy obrazlar (lab, xol, xat, qosh, ko‘z, yuz) taraqqiy qilgan va ular majoz vazifasini bajaradi. Zulf istilohining o‘zi bir qancha, hatto, qarama-qarshi ma’nolarni ham tashib keladi: uning qoraligi, uzunligi, chigalligi asl maqsadni to‘tib turuvchi parda, riyozatli uzun yo‘l kabi. Zulf tolalari son-sanoqsiz bo‘lgani uchun u kasratni (ko‘plikni), ya’ni yaratilgan barcha moddiy ashyolar va maxluqotlar olamini anglatadi. Olam Ilohning go‘zalligini yashirib turadi. Qora rangda bo‘lgani uchun u g‘ayb olami va ilohiy sirlar zulmatiga ishoradir. Shoir zulflar ichida adashganini aytsa, solih bandaning dunyo g‘avg‘olari va moddiy borliq ichida Haqni izlab qiynalayotganini bildiradi.

Ko‘z yoki chashm – Ilohiy nazorat va Shahodat ramzi. Ilohiy ilm va ko‘rish (Basar): Haq taoloning hamma narsani ko‘rib, kuzatib turish sifati va bandaga bo‘lgan mutlaq nazoratidir. Ko‘zning «bemor» yoki «mast» bo‘lishi – Haqning oshiq qalbiga beradigan ilohiy jazbasi bo‘lib,

u solihni o'zligidan (dunyo aqlidan) ayiradi va uni fano (yo'qlik) maqomiga yetaklaydi. Ma'shuqa ko'zining oshiqqa bo'qishi — Ilohning bandaga qilgan rahmat va tavajjuh nazaridir.

Qosh – Ilohiy sifatlar va Ostonaga ishora. Qosh o'zining egik shakli (mehrobga o'xshashi) bilan diniy-tasavvufiy ma'nolarga bog'lanadi: Agar ma'shuqaning yuzi (ruxsori) Ilohning Zotini anglatga, qosh uning Ismlari va Sifatlaridir. Oshiq Zotni ko'rishdan oldin uning sifatleri (qoshi) bilan to'qnashadi. Egik qosh solih banda tiz cho'kib sajda qiladigan haqiqiy ma'naviy qibladir. Ikki qoshning birlashgan joyi Haq bilan banda o'rtasidagi eng yaqin maqomga, ya'ni mutloq vuslat nuqtasiga ishora qiladi.

Ruboiyda lirik qahramon majoziy ishqdan ilohiy ishqqa intilayotgani aks ettirilgan. Zulf – solihni to'g'ri yo'ldan chalg'ituvchi vaqtinchalik dunyo matolari va uning jozibasi ramzi. Ko'z va qosh – inson nafsini o'ziga tortuvchi hayotiy lazzatlar, kibr-u havo va o'tkinchi havaslarning majozidir, lirik qahramon Allohga iltijo qilib, meni mana shu o'tkinchi dunyoning go'zalliklariga bog'lanib qolishdan, ularga asir bo'lishdan asra demoqda. Tasavvufda eng oliy maqomlardan biri – vorastalik, ya'ni dunyo tashvishlaridan, Allohdan o'zga har qanday narsadan nafsni butunlay poklash, ozod qilishdir. To'rtinchi misrada lirik qahramonning qalbi faqatgina Allohning ishq bilan to'lishini istayotganidan dalolat beradi. Har bir misradagi so'zlar ham mazmun, ham ohangi bilan bir-birini to'ldirib kelmoqda: Zulf, ko'z, qosh so'zlari hamda ularga mantiqan bog'liq bo'lgan vobasta (bog'langan), xasta (kasal), payvasta (doimiy bag'ishlangan) so'zlari yuksak mahorat bilan bir guruhda qo'llanilgan.

Shoir birinchi uchta misrada insonni chalg'ituvchi vositalarni (zulf, ko'z, qosh) birma-bir sanaydi va oxirgi to'rtinchi misrada ularni umumlashtirib, barchasidan bir yo'la qutulish chorasini so'raydi. Ruboiy arruz vaznining hajaz bahrida yozilgan. Ruboiy inson ruhining moddiy qullikdan, nafs kishanlaridan va dunyo ro'yolaridan yuqori turishi, ruhan ozod bo'lishi kerakligi haqidagi Navoiyona buyuk falsafiy darsdir.

128.

Yo Rabki, fano bazmida xos ayla meni,

Faqr ahlig'a sohibixtisos ayla meni,

Yo doxili zumrayi xavos ayla meni,

Yo ranji avomdin xalos ayla meni. [1. 745-sahifa]

Mazkur ruboiyni mavzusiga ko'ra orifona ruboiy deyish mumkin, ayla meni radifining qo'llanilishiga ko'ra muraddaf ruboiy, qofiyalanishiga ko'ra taronayi ruboiy: xos – ixtisos – xavos – xalos. Ruboiy nido san'ati bilan boshlanyapti, so'zlarning hammasi istiloh darajasiga ko'tarilgan so'zlar hisoblanadi, negaki fano, fano bazmi, zumrayi xavos tushunchalari tasavvufiy ta'limot bilan bog'liq. Birinchi baytda fano bazmi va faqr ahli tushunchalari orqali tanosub san'atini hosil qilingan. Ikkinchi baytdagi zumrayi xavos bilan avom tushunchalari bilan esa tazod san'ati yuzaga chiqmoqda. Matnda ishtiyoq san'atidan ham foydalanilgan. Ruboiyda fano va baqo konsepsiyasi bilan bog'liq falsafiy-tasavvufiy qarashlarning badiiy talqinini so'zning e'joz maqomidan foydalangan holda bermoqda, ya'ni har bir so'zga olamcha ma'no yuklangan, shuning uchun ham so'zlar istiloh darajasiga o'sib chiqqan. Avom ranji – johil kimsalardan yetadigan ozor nazarda tutiladi. Ruboiy Allohga murojaat bilan boshlanib, bu iltijo butun matnning kayfiyatini belgilab bermoqda, lirik qahramonning umidi dastlabki baytda juda ham katta, ya'ni faqr ahlidan bo'lib fano majlislarining ishtirokchisiga aylanmoqchi, keyingi baytda esa bu umid amalga oshmay qolgan vaqtda xoslar zumrasi vakili bo'lsa ediki, agar bu ham bo'lmasa johillikdan yetadigan ranjlardan uzoqda bo'lishni Yaratgandan iltijo qilib so'rash

orqali umidvorlik tuyg'usini tarannum qilmoqda. Bu ruboiy orqali shoirning chiroyli bir munojotining guvohi bo'lamiz, ruboiyning aruz vazning hazaj bahrida yozilishi ham matn g'oyasiga hamohang bo'lgan.

Xulosa. Shoir talqinida so'z - ilohiy ne'mat bo'lib, u borliqni yaratuvchi kuch hamda inson qalbida tajalliy qiluvchi mo'jizadir. Navoiy ijodida so'z maqomlari uning ishq konsepsiyasi bilan bevosita bog'liq. Haqiqiy ishqni ifodalash uchun shoir oddiy so'zlardan emas, balki ramz va istilohlardan (majoz, timsol, ishora) foydalanadi. Bu esa uning she'riyatiga chuqur intellektual va estetik joziba bag'ishlaydi.

Ruboiy janrining ixcham tabiati va undagi qat'iy vazn, qofiya hamda radif tizimi Navoiy qalamida yuksak mahorat bilan shakllantirilgan. Navoiy mana shu tor va cheklangan shakl ichiga olamjahon falsafiy, tasavvufiy-ta'limiy g'oyalarni mukammal sig'dira olgan. Shoir ruboiylarida surat va ma'ni birligi, xususan, ishqiy tuyg'ularning lirik va lo'nda ifodasida ko'rinadi. Dastlabki uch misrada tayyorlangan «surat» to'rtinchi misrada kutilmagan, o'tkir va falsafiy xulosa - ishqning tub mohiyati yoki ta'limiy o'git bilan yakunlanadi va ruboiyning g'oyaviy ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Alisher Navoiy lirik merosida g'azal va ruboiy kabi janrlar, shuningdek, so'zning badiiy-estetik imkoniyatlari yagona maqsadga - inson qalbida ishq g'oyasini yoritishga xizmat qiladi. Janrlar shaklan farq qilsa-da, ulardagi mohiyat va g'oyaviy yo'nalish mushtarakdir. Navoiy she'riyatida tashqi go'zallik (badiiy san'atlar, so'z qo'llash mahorati, shakliy mukammallik) ichki ma'no (ilohiy ishq, komil inson, go'zal xulq) bilan benuqson darajada sintezlashgan. Shoir yaratgan «so'z maqomlari» va lirik timsollar tizimi orqali ishq mavzusi o'zining eng yetuk badiiy-estetik ifodasini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 1-jild. Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi". 2013. – B.804.
2. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. Toshkent: "Sharq". 1999. – B.240.
3. Hojiahmedov A. Navoiy aruzi nafosati. Toshkent: "Fan". 2006. – B.288.
4. Hojiahmedov A. O'zbek aruzi lug'ati. Toshkent: "Sharq". 1998. – B.224.
5. Is'hoqov Yo. Navoiy poetikasi ("Xazoyin ul-maoniy" asosida). Toshkent: "Fan". 1983. – B.167.
6. Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. Toshkent: "O'zbekiston". 2014. – B.320.
7. Qayumov A. Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash'orlar. Toshkent: "Sharq". 2014. – B.272.
8. Berdak Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug'ati. Toshkent: "Sharq". 2010. – B.528.
9. Lapasov J. Mumtoz adabiy asarlar o'quv lug'ati. Toshkent: "O'qituvchi". 1994. – B.272.
10. Ataniyazova M. Mumtoz adabiyot istilohlari qisqacha izohli lug'ati. Nukus: "Ilimpaz". 2021. – B.100.